



## O‘LKASHUNOSLIK MUZEYINING VUJUDGA KELISHI VA TARIXI

I.G.Yelmuratov,  
QQDU O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston tarixi  
kafedrasi PhD dotsent

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.19603754>

**Annotatsiya.** Bu maqolada Qoraqalpog‘iston tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi materiallar to‘plangan va muzeylarning tashkil etilishi muhim bosqich keltirilgan. O‘lkashunoslik muzeyi tarixiy arxeologiya hamda etnografiyadan tortib, geografiya va ekologiyagacha bo‘lgan keng ko‘lamli masalalarni o‘z ichiga olgan ilmiy tadqiqot.

Qoraqalpog‘istonda o‘lkashunoslikning shakllanishi o‘ziga xos tarixi, mintaqaning madaniyati, tarixi, tabiatiga qiziqqan olimlar va tadqiqotchilarning faoliyati bilan bog‘liq. Dastlabki bosqichlarda folklor asarlarini to‘plash, mahalliy urf-odat va an‘analarni o‘rganishga qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** O‘lkashunoslik muzeyi, tarix, madaniy yodgorliklar, muzey faoliyati, ilmiy-tadqiqot instituti

**Annotation.** This article contains materials reflecting the history and culture of Karakalpakstan and presents an important stage in the creation of museums. The Museum of Local Lore is a scientific study covering a wide range of issues, from historical archaeology and ethnography to geography and ecology.

The formation of local history in Karakalpakstan is connected with the activities of scientists and researchers interested in the unique history, culture, history, and nature of the region. At the initial stages, it was aimed at collecting folklore works and studying local customs and traditions.

**Keywords:** Regional Studies Museum, history, cultural heritage sites, museum activities, research institute.

Qoraqalpog‘istonda ona yurtning o‘rganishga bo‘lgan qiziqishning shakllanishi o‘ziga xos tarixga ega. O‘lkashunoslik tadqiqotlarining boshlanishi mintaqaning o‘ziga xos madaniyati, tarixi va tabiati bilan qiziquvchi olimlar va tadqiqotchilarning diqqat markaziga aylangan davrga to‘g‘ri keladi.

O‘lkashunoslik taraqqiyotidagi dastlabki qadamlar folklor asarlarini to‘plash, mahalliy aholining urf-odatlarini va an‘analarni o‘rganish bilan shug‘ullangan ixlosmandlar faoliyati bilan bog‘liq edi. Bu sa‘y-harakatlar mintaqani tizimli o‘rganishga zamin yaratdi.

Qoraqalpog‘iston tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi materiallar to‘plangan, namoyish etilgan ilmiy jamiyatlar va muzeylarning tashkil etilishi muhim bosqich bo‘ldi. Bu muassasalar o‘lka haqidagi bilimlarni ommalashtirish va yangi tadqiqotchilarni jalb qilishda muhim rol o‘ynadi. Asta-sekin o‘lkashunoslik arxeologiya hamda etnografiyadan tortib, geografiya va ekologiyagacha bo‘lgan keng ko‘lamli masalalarni o‘z ichiga olgan mustaqil ilmiy tadqiqot yo‘nalishiga aylandi.



Qoraqalpog‘istonda o‘lkashunoslikning shakllanishi o‘ziga xos tarixga ega bo‘lib, mintaqaning madaniyati, tarixi, tabiatiga qiziqqan olimlar va tadqiqotchilarning faoliyati bilan bog‘liq. Dastlabki bosqichlarda folklor asarlarini to‘plash, mahalliy urf-odat va an‘analarni o‘rganishga e‘tibor qaratilgan. Bu ishlar mintaqani tizimli o‘rganishga asos soldi.

Muhim qadamlardan biri Qoraqalpog‘iston tarixi ham madaniyatini aks ettiruvchi materiallar to‘plangan ilmiy jamiyatlar va muzeylarning tashkil etilishi bo‘ldi. Ushbu muassasalar o‘lkashunoslik bilimlarini targ‘ib qilish va yangi tadqiqotchilarni jalb qilishda muhim rol o‘ynadi.

Vaqt o‘tishi bilan o‘lkashunoslik arxeologiya, etnografiya, geografiya va ekologiya kabi sohalarni qamrab olgan mustaqil ilmiy yo‘nalishga aylandi [ 1., b-7-8].

1920-yillarning oxiri-1930-yillarning boshlarida Qoraqalpog‘istonni o‘rganish bir necha yo‘nalishda olib borildi, ularning eng muhimi muzey tashkil etish, bu hududdagi ishlab chiqaruvchi kuchlar, tabiiy resurslar, qoraqalpoqlar tarixi va madaniyatini o‘rganishdan iborat bo‘ldi.

Qoraqalpog‘istonda muzey tashkil etish bilan bog‘liq dastlabki qadamlar O‘rta Osiyo, shu jumladan, O‘zbekistonda XIX asrda sodir bo‘lgan tarixiy va madaniy jarayonlar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan.

1930-yillar atrofida muzey ishiga tadqiqot ishlarini bir xillashtirishga yo‘naltirilgan davlat siyosati bilan o‘zaro chambarchas bog‘liq holda qarala boshlagan. Tadqiqotlar yo‘nalishning o‘zgarishi va 20– yillarning ikkinchi yarmida o‘lkashunoslik muzeylari tarkibidagi maxsus Tabiiy-tarixiy va Iqtisodiy bo‘limlarning vujudga kelishida namoyon bo‘lgan. Bu davrda muzey bilan bog‘liq barcha faoliyat sovet hokimiyati tomonidan faqat tarixiy-madaniy qadriyatlar, tabiat, jamiyat va tarixga doir o‘ziga xos hamda har tomonlama bilimlar olish usuli sifatidagina emas, balki yangi hududlarni o‘zlashtirish shakli sifatida ham qaralgan. Ushbu tadqiqotlar asosida Qoraqalpog‘istonning tabiiy resurslarini o‘rganishning asosiy yo‘nalishlari ishlab chiqilgan, zero, sovet hokimiyati bu davrda yangi xom ashyo manbalariga katta ehtiyoj sezayotgan edi.

Agar dastlabki o‘lkashunoslik ishlari faqatgina o‘rganishdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, 1930- yillarda Qoraqalpog‘istondagi ishlab chiqarish kuchlari, uning moddiy va ma‘naviy madaniyati muammolarini tadqiq etishga kirishildi. Hukumat hujjatlaridan birida “Har bir shahar, har bir rayonda mehnatkashlarning birlashgan ommasi o‘z kuchi bilan yangi hayot barpo etmoqda”, deyiladi. Shu bilan birga unda “Bunyodkorlar ishlarning to‘g‘ri va samarali bo‘lishi uchun o‘z respublikasi va oblastini, o‘z korxonasini, xoh kuchli, xoh zaif tomoni bo‘lsin, u erda olib borilayotgan ishlarni, ularning rejasini, unumdor hosil va foydali resurslar olinadigan erining holatini, o‘z hududida yashovchi kishilar hayotining ijobiy va salbiy tomonlarini, qanday yo‘llar bilan aholi turmush darajasini yanada yaxshilash kerakligini, respublika qurilishi ishlarida to‘g‘ri ishtirok etib, o‘z ishining ijobiy



natijasiga erishishi uchun ishlab chiqaruvchi kuchlar holatini yaxshi bilishi lozim” [2.,b-155] ligi ham ko‘rsatib o‘tiladi.

1931-yilning avgustida Qoraqalpog‘iston ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilgach, O‘lkashunoslik muzeyi mazkur muassasaga qo‘shib yuborilgan. Bu holat jamoatchilik orasida bahs-munozaralarga sabab bo‘lgan. 1932 -yilning aprelida Oblast Xalq ta‘limi bo‘limi o‘lkashunoslik muzeyini Oblast Xalq ta‘limi bo‘limi tarkibida qoldirishni so‘rab, MIQga murojaat bilan chiqqan. Unda Markaziy o‘lkashunoslik muzeyini tashkil etishda oblast XTB Markaziy o‘lkashunoslik muzeyini mazkur tashkilotga birlashishi masalasini qo‘ya olmasligi, qolaversa, oblastni respublikaga o‘zgartirilishi davrida, ya‘ni QAO mehnatkash aholisi xo‘jaligi va madaniy qurilishining umumiy holatini aks ettiradigan sharoitda o‘lkashunoslik muzeyini XTB tarkibida qolishi lozimligi ta‘kidlab o‘tilgan.

Shuningdek, maktubda “muzey ommabop risolaga qaraganda yanada yorqin va osonroq ta‘sir ko‘rsata oluvchi o‘zining ko‘rgazmali qo‘llanmalari bilan malakasi bo‘lmagan muzeyga tashrif buyuruvchi har bir odamga tabiat, jamiyat, sinfiy kurashlar, diniy aldovlar, mehnatkashlarning inqilobiy kurashlardagi qahramonliklari, kapitalistik jamiyatdagi ekspluatatsiya, sotsialistik qurilishning barcha sohalari to‘g‘risida ma‘lumot berib, har bir ishchi va dehqonni o‘z xato va kamchiliklariga tanqidiy yondashish imkonini beradi. Bu vazifalarni muzey faqat uni respublikadagi barcha o‘lkashunoslarni va Markaziy o‘lkashunoslik muzeyi qoshidagi o‘lkashunos faollarini birlashtirgan Oblast XTB qoshidagi MO‘B (Markaziy O‘lkashunoslik Byurosi) tarkibida bo‘lgan taqdirdagina amalga oshirishi mumkin. Muzey – o‘lkashunoslik hayotining, o‘lkashunoslik harakatining tashkilotchisi, muzey – mehnatkashlarning ilmiy laboratoriyasi va shu bilan birga ularning ijod mahsuli hisoblanadi” [3.,b-156], deya uqtiriladi. Shundan kelib chiqib, viloyat XTB oblast Ijroiya qo‘mitasidan O‘lkashunoslik muzeyini QITI (Qoraqalpog‘iston ilmiy-tadqiqot instituti) tarkibidan chiqarib, uni oblast XTB tasarrufiga o‘tkazishni so‘rab murojaat yo‘llagan. Xatda, shuningdek, barcha binoni muzey ixtiyoriga berish (muzey QITI joylashgan sobiq cherkov binosida faoliyat olib borayotgan edi) kerakligi, “unga yondosh qurilishi bitmagan joylari muzeyning bundan keyingi ekspozitsiyaviy ishlariga to‘g‘ri kelmasligi” ham aytib o‘tilgan edi. Bundan tashqari, oblast muzeyining “muzey tashkil etilganidan buyon mavjud uning barcha mol-mulkini va ilmiy-tadqiqot institutidan chiqarilgan muzey eksponatlarini ham, xo‘jalik asbob-uskunalarini, QITI moliyasi hisobidan muzeyga ajratiladigan mablag‘larni, unda faoliyat yuritayotgan barcha xodimlarni oblast XTB tasarrufiga o‘tkazilishi” so‘ralgan[4., B-156-157].

Shunday qilib, 1932-yilda o‘lkashunoslik muzeyi oblast XTB tizimiga o‘tkazilgan, biroq 1933-yilda Qoraqalpog‘istonda olib borilgan o‘lkashunoslik ishlari tushkunlik holatiga kelib qolgan.

Respublikada faoliyat yuritgan davriy nashrlardan biri “Qizil Qaraqalpaqstan” bu sohadagi mazkur holatni quyidagicha bayon qiladi: “1931-yildan boshlab Qoraqalpog‘iston o‘lkashunoslik jamiyati tashkil etildi. Biroq 1932-1933-yillarda



uning faoliyatiga kirishilgan bo'lsa-da, rejada belgilangan ishlarning aksariyati amalga oshirilmay, qog'ozda qolib ketdi. So'nggi yillardan ishlar ancha jonlanib, bir qator tashkilotlardan, masalan, ilmiy-tadqiqot institutidan va boshqa muassasalardan uning yacheykalari vujudga keltirila boshlandi. Ularga rahbarlik qiluvchi mas'ul tashkilotlar bo'lmagani sababli hozirgi kunda mazkur yacheykalarining qaerda joylashganligi haqida ma'lumotga ega emasmiz, tarqalib ketgan. Yacheykalar emas, hatto respublika o'lkashunoslik byurosining o'zi ham boshpanasiz, egasiz qolgan"[5., b-2].

Ko'rib turganimizdek, 1935-yilga kelib Qoraqalpog'istondagi o'lkashunoslik ishlari O'lkashunoslik byurosining QITI tizimiga o'tkazilganidan so'ng murakkab vaziyatga tushib qolgan. Bu ish o'lkashunoslik bilan Qoraqalpog'istondagi dastlabki o'lkashunoslik muassasalaridan biri hisoblangan O'lkashunoslik muzeyi shug'ullanishni boshlaganidan so'ng birmuncha faollashgan.

Ushbu muassasa dunyodagi ko'p sonli muzeylarning biri hisoblanadi. Biroq uning Qoraqalpog'iston madaniyati tizimidagi roli o'rganilayotgan davrda, ayniqsa, madaniy o'choq ob'ektlar bo'lmagan sharoitlarda faoliyat olib borganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda o'sha vaqtda O'lkashunoslik muzeyi tarixiy va madaniy yodgorliklarni umumlashtirish, muhofaza qilish va ommalashtirish bilan shug'ullangan ma'rifiy muassasa sifatida qaraldi.

Muzeyni vujudga keltirilishi muzey xodimlarini o'lkashunoslik harakatida faol ishtirokini nazarda tutgan holda, madaniy merosni muhofaza qilish vazifalari bilan chambarchas bog'liq holda amalga oshirildi. Muzeyning maqsadga yo'naltirilgan fondi asosan muzey xodimlari, shuningdek, ilmiy ekspeditsiyalar jarayonida to'plangan. Hukumatning muzey ishini qo'llab-quvvatlashi muzey faoliyatini mustahkamlanishi va birmuncha yaxshi natijalarga erishishiga ta'sir ko'rsatdi. Bunda davlatning o'lkashunoslik rivojida ijobiy ahamiyati ko'zga tashlanadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Z.Qidirniyozov - Qoraqalpog'iston o'lkashunosligi tarixi (1925-1959 yy.) (Monografiya) Nókis «Print Darhan» baspası. 2025-j. 7-8 b
2. QR MDA, 322-fond, 1-ro'yxat, 53-ish, 155-varaq.
3. QR MDA, 322-fond, 1-ro'yxat, 53-ish, 156-varaq.
4. QR MDA, 322-fond, 1-ro'yxat, 53-ish, 156-varaq.
5. Қизил Қорақалпоғистон, 1935, 27 январ.2 varaq